

2020 yil iyun

Hurmatli ingliz tilini o'rganuvchilarning (ELL) ota-onalari va vasiylari

So'nggi bir necha oy mobaynida Nyu-York shtati ta'lim Departamenti va farzandingiz ta'lim olayotgan maktab, maktablar yopilganda COVID-19 pandemiyasi davrida amalda bo'ladigan siyosatga sezilarli o'zgarishlar kiritdi. Sizning e'tiboringizga shuni yetkazmoqchi edikki, mazkur o'zgarishlar va keyingi boshqa har qanday tuzatishlar ingliz tilini o'rganayotgan bolangizning mafaatini hisobga olgan holda kiritilmoqda, hamda o'qituvchilar tarkibining rahbariyati tomonidan ta'lim rejasiga o'zgarishlar kiritilganda xavfsizlik va teng huquqlikni ta'minlash asosiy omil hisoblanadi. Sizning ko'magingizsiz masofadan o'qitishning iloji bo'lmas edi (texnologiya yordamida va/yoki pochta yoki boshqa resurslar orqali bolaning o'qituvchisidan xabarlarini yuborish). Bizni ushbu o'tkinchi davrda qo'llab-quvvatlab, qilgan va o'quv yilining oxirigacha, yozda va 2020-2021 o'quv yilida qilishda davom etadigan barcha ishlaringiz uchun tashakkur bildiramiz.

Farzandingiz maktabda ta'lim olishida siz ko'mak berayotganingiz uchun, maktablar COVID-19 pandemiyasi sababli yopilganida masofaviy ta'lim jarayonida siz juda katta rol o'ynayotganingizni biz juda yaxshi tushunamiz. Pastroqda biz sizning e'tiboringizga yetkazmoqchi bo'lgan ayrim muhim o'zgarishlar taqdim etilgan:

- Farzandingiz bilan aloqada qolishingiz, farzandingizning ta'limiga taalluqli bo'lgan oxirgi yangilanishlardan xabardor bo'lib turishingiz muhim. Iltimos, farzandingiz ta'limni va til o'rganishni davom ettirishi uchun telefon, elektron pochta orqali yoki onlayn-ilovalar yordamida biz bilan aloqada bo'lishni davom eting.
- Agar oziq-ovqat mahsulotlari bankining, onlayn-ta'limning resurslariga kirish uchun texnologik vositalarni izlashda yoki farzandingiz yoki oilangiz uchun boshqa har qanday ko'makni olishda yordam kerak bo'lsa, maktabga murojaat qiling, u sizga ushbu hayotiy muhim resurslarni olishga yordam beradi.
- Maktablar farzandingiz uchun zarur bo'lgan xizmatlarni ro'yxatga olishni va aniqlashni davom etadi. Mazkur jarayonlar video-konferensiyalar yordamida, telefon yoki elektron-pochta orqali amalga oshiriladi.
- Iltimos, siz muhim axborotga ega bo'lishingiz uchun maktablar sizning dolzarb kontakt ma'lumotlaringizga ega ekanligiga ishonch hosil qiling
- Muvaffaqiyatga erishishda zarur bo'lgan ko'makni ko'rsatishda barcha o'qituvchilar javobgar hisoblanadi. Farzandingizning ehtiyojiga qarab siz bilan turli o'qituvchilar bog'lanishi mumkin.
- Kuomo Gubernatorining qaroriga muvofiq, o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida yozgi maktab onlayn-ta'limga o'tkazildi.
- Hozirgi vaqtda, 2020-2021 o'quv yilining boshida, ingliz tilini o'rganayotgan barcha shaxslar ingliz tili bilimlari bo'yicha joriy darajasiga o'tkaziladi (Boshlang'ich, Pastki

oraliq, Oraliq, Ilg'or). Bu 2020-2021 o'quv yilining boshida ingliz tilini o'rganayotgan shaxslarga ularning til ehtiyojlariga qarab kerakli ko'makni kafolatlaydi.

- Maktablar sizga ingliz tilini o'rganayotgan shaxslar 2020-2021 o'quv yilida o'z natijalarini qay tarzda namoyish qilishlari borasidagi axborotni yuborishi uchun har doim siz bilan aloqada bo'lib turishi kerak. Farzandingizni ro'yxatdan o'tkazishda siz ushbu axborotni qaysi tilda olish istagida bo'lganligingiz to'g'risidagi axborotni taqdim etdingiz. Sizning axborot olishingizni ta'minlash uchun maktablar yozma va og'zaki tarjima resurslaridan foydalanishni davom etishlari kerak.

Mana bu yerda mintaqalar bo'yicha sanab o'tilgan mahalliy hamjamiyatlarga murojaat qilib, siz qo'shimcha resurslarni olishingiz mumkin: <http://www.nysed.gov/bilingual-ed/guide-community-based-organizations-immigrants>

Bundan tashqari, ingliz tilini o'rganayotgan shaxslarning ota-onalari uchun Nyu-York shtatining tezkor liniyasi erishimli. Xodimlar va resurslar til ko'magi bilan ta'minlangan (o'nta til). Tezkor liniya bo'yicha ingliz tilini o'rganayotgan shaxslarni parvarish qiluvchi ota-onalar, vasiylar va tibbiyot xodimlari Nyu-York shtati Komissari Reglamentining 154 Qismi doirasida ularning farzandlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar va huquqlari borasida axborot olishlari mumkin. (800) 469-8224 telefoni bo'yicha tezkor liniyaga qo'ng'iroq qilib yoki <https://research.steinhardt.nyu.edu/metrocenter/ellparent hotline> elektron pochta orqali murojaat qilib siz qo'shimcha ma'lumotni olishingiz yoki farzandingiz uchun huquq yoki xizmatlar borasida aniq savolni berishingiz mumkin.

Muvaffaqiyatga erishishda va farzandingizning o'sishini ta'minlashda qilayotgan barcha ishlaringiz uchun yana bir bor tashakkur bildiramiz. O'zingizni ehtiyot qiling.

Hurmat bilan,

The New York State Regional Bilingual Education Resource Networks (RBERNs)

New York State Language RBERN (Statewide)

New York University Metro Center
726 Broadway – 5th Floor
New York, NY 10003
Tel: (212) 992-6730
Website: <http://steinhardt.nyu.edu/metrocenter/rbern/>

Mid-State RBERN at OCM BOCES

Mailing address: PO BOX 4754, Syracuse, NY 13221
Located at: 110 Elwood Davis Road,
Liverpool, NY 13088
Tel: (315) 433-2664 or 2610
Website: <http://www.ocmboces.org/rbern>

Capital District RBERN at Questar III BOCES

10 Empire State Boulevard
Castleton, NY 12033
Tel: (518) 477-8771
Website: <https://rbern.org/>

Mid-West RBERN at Monroe 2 - Orleans BOCES

3599 Big Ridge Road
Spencerport, NY 14559
Tel: (585) 352-2790
Website: https://www.monroe2boces.org/mid-westrbern_home.aspx

Hudson Valley RBERN at SW BOCES

450 Mamaroneck Avenue

Harrison, NY 10528

Tel: (914) 345-8500

Website: <https://www.hudsonvalleyrbern.org/>

New York City RBERN at Fordham University

441 E. Fordham Road, Bldg. 2536

Hughes Avenue (Off Campus)

Bronx, NY 10458

Tel: (718) 817-0606

Website: https://www.fordham.edu/info/21065/nysnyc_regional_bilingual_education_resource_network

Long Island RBERN at ESBOCES Islip Office Center

379 Locust Avenue

Oakdale, NY 11769

Tel: (631) 218-5175

Website: <https://www.esboces.org/lirbern>

West Region RBERN at Erie I BOCES

355 Harlem Road – Building C

West Seneca, NY 14224

Tel: (716) 821-7546

Website: <https://www.rbernwest.e1b.org/en/index.aspx>